

YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUXIDA TARBİYALASHDA TARIX  
FANINING AHAMIYATI

Ergashev Sherbek Sadridin o'g'li

**Annotatsiya:** *Milliy Vatanparvarlik haqida so'z borganda, bu o'zbek xalqining qoniga singib ketgan iymon, insof, mehr-muhabbat, oqibat, shavqat, or-nomus, ona yurtiga, o'z eliga sadoqat ahloqiyma'naviy qadriyatlar, g'oyalar, qarashlar yig'indisi tushuniladi. Ushbu maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda tarix fanining ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *ilmiy-ijogiy g'oyalar, kompetentlik, kasbiy faoliyat, tadqiqotchilik, dasturlar, innovatsion yondashuvlar*

Ta'lim muassasalarida ham Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tarbiyalash ta'limining asosiy mazmunini tashkil etmoqda. Vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirishda O'zbekistonning davlat ramzlari bayroq, gerb, madhiya, o'zbek tili, Konstitutsiya va boshqa shu millatga, shu zaminga xos, mos bo'lgan tuyg'ular, fazilatlar o'tkazilayotgan madaniy-ma'rifiy faoliyatda o'z aksini topmoqda.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat darajasidagi masalalardan bo'lganligi bois, bunday maqsadlarga aniq rejalashtirilgan yo'l xaritalarida belgilangan vazifalardan iborat ishlarni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Vatanparvarlik mavzusida juda ko'p olim-u ulamolarimizning ijod namunalari-yu, bu haqdagi fikrlari bizgacha yetib kelgan. Amir Temur, Alisher Navoiy, Muhammad Zaxiriddin Bobur, Mirzo Ulug'bek va boshqa ajdodlarimizning ijod namunalari hozirgi kungacha, ya'ni bizning zamonamizda ham o'ziga xos o'rin egallagan bo'lib, yoshlar tarbiyasida ibrat, namuna sifatida qo'llanib kelinmoqda. Vatan tushunchasini har kim har xil ma'noda, o'zining tushunish darajasida talqin qiladi. Bu - insonning tug'ilgan, kindik qoni to'kilgan joydir, bolalik, yoshlik davri o'tadigan, ta'lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo'msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo'lida xizmat qilish, uni yomon ko'zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha'nini himoya qilish - bularning barchasi siz-u bizning oldimizda turgan mas'uliyatli vazifalardandir. Vatan tushunchasini, uni sevish, ardoqlash, himoya qilish tuyg'usi nafaqat insonda, balki hayvonot olamida ham kuzatish mumkin. Baliq suvga, hayvon o'zining iniga, hasharot uyasiga intiladi.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda Amir Temur o'gitlari alohida qimmatga ega. Sohibqiron Amir Temur mamlakatda adolatni tiklash, tartib- intizom o'rnatishga katta e'tibor bergan va o'zi alohida jonbozlik ko'rsatgan. Ishonchli chora-tadbirlar qo'llaydi. Amir Temur davlatni adolat va tadbirkorlik bilan boshqarishda boshqa hukmdorlardan ustun turadi. Sohibqiron ezgu insoniy fazilatlar shavkatida bir

yoʻldosh boʻlgan holda uning tole yulduzi yuksak porlab, raqiblarga qarshi kurashda yoʻlini yoritib, ilhom baxsh etib turadi.

Amir Temur hazratlarining koʻrkam xulqlaridan biri shuki, Osiyoning yarmini surib turgan boʻlishiga qaramay siyosiy nutqlarini quyidagicha, juda sodda iboralar bilan boshlar edilar: «Men, Tangrining quli-Temur shuni aytamanki..». Koʻrinadiki, Amir Temur, vazifasi, dovrugʻi tufayligina emas, balki havas qilsa arziydigan darajada vatanparvar, adolatli hukmdorligi bilan ham boshqalardan ajralib turgan.

Alisher Navoiy Amir Temurning shaxsiy qobiliyati haqida bunday deb yozgan edi: «Amir Temur Koʻrogon... agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xoʻp mahal va mavqeda uqubdurlarkim, aningdek bir bayt oʻqurgʻoni ming yaxshi bayt aytqonicha bor. Tabarruk xaysiyatidankim, ul hazratning muborak ismi bu muxtasarda boʻlgʻay va ul latoyifdan biri bila ixtisor qililur».

Bu jumalalarda Sohibqironning jasoratli, mard, odil, vatanparvar, elsevar va tadbirkor, shu bilan birgalikda shariat ixlosmandi, adolatparvar, mulohazali inson sifatlariga ega boʻlganligi ifodalangan. Bu Yoshlarda vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirishda eng yaxshi ibrat sifatida namoyon boʻladi.

Amir Temurning kasb-hunarli va maʼrifatli, vatan, el-yurt obodligi, farovonligi uchun jon kuydiradigan fuqarolarga gʻamxoʻrliqi, ularni kasb-kori boʻyicha yumush bilan taʼmin etishni oʻz zimmasiga olganligi gʻoyat ibratlidir. Sohibqiron oʻz tuzuklarida: «...har qaysilarining, sultonlarning yoʻl-yoʻriqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi axloqlari, maʼqul sifatlaridan namuna olib, unga amal qildim», -deb yozadi.

Shuningdek, ulugʻ bobomizning «Tarjimai hol»ida keltirilgan oʻn ikki fazilat bugungi kunda ham yoshlarning vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirishda gʻoyat muhimdir:

|   |
|---|
| 1. <u>Begʻarazlik.</u>                    |
| 2. <u>Oʻzaro hurmat.</u>                  |
| 3. <u>Adolatparvarlik.</u>                |
| 4. <u>Umum manfaatni hurmatlash.</u>      |
| 5. <u>Dinni eʼzozlash.</u>                |
| 6. <u>Haqqoʻylik.</u>                     |
| 7. <u>Vaʼdaga sodiqlik.</u>               |
| 8. <u>Hasad va ochkoʻzlikni qoralash.</u> |
| 9. <u>Maʼnaviy va jismoniy poklik.</u>    |
| 10. <u>Imon.</u>                          |
| 11. <u>Ilm fan homiylarini eʼzozlash.</u> |
| 12. <u>Ikromiyat, rahmdillik.</u>         |

Amir Temur xalq va vatan ozodligi xavf ostida turgan mahalda xiyonat qilmaslikka chaqiradi. Unda hamiyat nihoyat darajada kuchli bo'lgan.

«Agar bizning qudratimizni bilmoqchi bo'lsangiz qurgan binolarimizga boqing», degan edi Amir Temur. Bu bilan u vatanni obod qilish g'oyasini targ'ib qilgan. Har bir xalqning nechog'li vatanparvar ekanligini bilish uchun shu yurtning obodligini his etish kifoyadir. Chunki o'z yurti, yashaydigan manzilini sevadigan odamgina uning gullab-yashnashi uchun tinmay harakat qiladi. Boshqalar uning xarob, oyoqosti qilishlariga yo'l qo'ymaydi.

Insoniyat yangi asrga qadam qo'yayotgan bugungi kunda ham Amir Temur ma'naviyati va shijoati, adolatparvarlik, yurtsevarlik siyosati yuksak ibrat namunasi bo'lib qoladi.

Amir Temur xalqaro maydonda ham o'z beqiyos salohiyatini yorqin namoyish qila olgan buyuk shaxsdir. Turli millatlar, turli irq dindagi odamlarni birlashtirib, markazlashgan qudratli davlat tuzishga erishgan. Yurtdoshlarini hamjihatlik va taraqqiyot, bunyodkorlik sari boshlagan ulug' ajdodimizning bu boradagi sa'yi xarakatlari bugungi kun yoshlari uchun ham ibratlidir. U savdo-sotiq va iqtisodiy munosabatlar orqali xalqlar, mamlakatlar o'rtasida yagona makon barpo etish g'oyasini ilgari surdi.

Yoshlarga oid davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar faoliyatida ko'rish mumkin. Yoshlar har bir davlatning kelajagini belgilovchi kuch ekanini e'tiborga olsak, dunyoning deyarli barcha davlatlarida bejiz yoshlar siyosatini amalga oshirish bo'yicha milliy konsepsiyalar ishlab chiqilib, samarali faoliyat olib borilayotganining guvohi bo'lamiz. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois ham, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq Uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida ham, yoshlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Jumladan, O'zbekistonda buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Yosh matematiklar xalqaro olimpiadasi muvaffaqiyatli o'tkazilgan, uning mantiqiy davomi sifatida fizika bo'yicha Ahmad Farg'oniy, kimyo fani bo'yicha Abu Rayhon Beruniy, biologiya bo'yicha Abu Ali ibn Sino, astronomiya bo'yicha Mirzo Ulug'bek nomlaridagi xalqaro fan olimpiadalari tashkil etilishi, iqtidor va iste'dodli yoshlarni qo'llab quvvatlashdir. Mana, amalda bugun ijod, prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablarning faoliyati, oltin, kumush medal joriy etilgani, fan olimpiadasi g'oliblari, Zulfiya, "Mard o'g'lon" "Kelajak bunyodkori" kabi davlat mukofotlarini joriy etilganining tub maqsadi, qonunning hayotiyliigi va ijrosini ta'minlashdir.

Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush

tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish, barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina o'sib kelayotgan yosh avlod xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l, avvalo, ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun ajdodlarimiz qoldirgan bebaho meros, urf-odatlar, an'analar, marosim va qadriyatlarni hayotimizdagini va ahamiyatini chuqur va atroflicha tahlil qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish, "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan farzandlarimizning ongu tafakkurini himoya qilishdailmu fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahliningo'rni va roli bilan bir qatorda ajdodlarimizdanmeros bo'lib qolgan tarbiyaviy ahamiyati yuksak baholanuvchi milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va ma'naviy merosimiz namunalariningo'rni tobora ortib bormoqda. Jamiyat barkamolligini ma'naviy omillar belgilaydi. Shu jihatdan bizning maqsadimizkelajakda komil insonlarni tarbiyalash ekan, bugungi kunda yoshlar ma'naviyatiga asosiy e'tiborqaratishimiz lozim. Mamlakatimizda mustaqil rivojlanishning dastlabki yillaridanoq, demokratik o'zgarishlar sharoitida jamiyat hayotini yangilashning muhim bo'g'ini sifatida ta'lim sohasini isloh qilish siyosatini izchil amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Aslida, ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsad va vazifalari O'zbekistonda zamonaviy huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ajralmas qismiga aylandi. O'zbekiston yoshlarini har tomonlama rivojlangan va yuksak ongli insonlar etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Ushbu yo'nalish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekiston xalqining tub manfaatlarini, hayotiy intilishlarini, niyatlari va intilishlarini amalga oshirish yosh avlod bilan bog'liq. Bu mamlakatni taraqqiyot va yangilanish yo'lidan olib boradigan, O'zbekistonning moddiy va ma'naviy kuchini oshiradigan zamonaviy avloddir. Umuman olganda, butun ta'lim tizimi rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy vazifalaridan biri keng jamoatchilikka va har bir fuqaroga O'zbekiston Respublikasining mohiyati va rivojlanish strategiyasini, milliy mafkuraning tamoyillari, maqsadlari va vazifalarini tushuntirishdir. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyatning bir shakldan ikkinchisiga o'tish davrida odam ma'lum bir ma'noda, mafkuraviy bo'shliqda paydo bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz yoshlari ongida mafkuraviy bo'shliqning oldini olish uchun milliy mustaqillik tushunchasi ishlab chiqilgan. Barkamol yosh avlodni tarbiyalashda yoshlarni hurmat va ehtiroimga yo'naltirish muhim o'rin tutadi. "Ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga, xalqimizning milliy qadriyatlariga. Shuning uchun milliy

mustaqillik mafkurasining asosiy vazifasi bu erkin va obod davlat qurish, erkin va farovon hayot qurishdir”

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Gerodot. “Tarix”, tom 1, 2.
2. Turaev B. Falsafa tarixining qisqacha bayoni. // Imom al -Buxoriy saboqlari. 2010. No2.
3. Konrad N.I. Zapad i vostok. – M.: 1972.
4. Yaspers Karl. Smysl i naznachenie istorii. Mysliteli XX veka. – M.: Respublika, 1994.
5. Karimov I.A. Yuksak Manaviyat - Yengilmas Kuch. - Toshkent: Manaviyat, 2008.—276b.
6. Milliy istiolol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - Toshkent: O‘zbekiston, 2001. - 72 b.
7. Madaliyeva Z. Huquqiy madaniyat va yoshlar. - T.: "Akademiya", 2020. 5-bet.